

## “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun borasida davra suhbat

“Oliy matematika” kafedrasida professor-o’qituvchilari ishtirokida 2020 - yil 3 - noyabr kuni O’zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to’g’risida”gi O’RQ-637-son Qonunining mazmun-mohiyati va ahamiyatini keng targ’ib etish maqsadida davra suhbat o’tkazildi. Institutimizning O’quv ishlari bo’yicha prorektori B.A.Xudayarov tadbirni kirish so’zi bilan ochib berdi va o’z so’zlarida O’zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to’g’risida”gi O’RQ-637-son Qonunining mazmun-mohiyati, ta’lim-tarbiya masalalari, talabalarni o’z sohasining yetuk mutaxassisi bo’lib shakllanishi, ta’lim sifatini yanada oshirish masalalariga, ta’lim tizimi, turlari va shakllariga alohida e’tibor qaratdi. Shuningdek, faqat tadbir uchun taklif etilgan va so’z berilgan kafedramizning yoshi ulug’ ustozlari ham O’zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to’g’risida”gi O’RQ-637-son Qonunining mazmun-mohiyatini ochib berishda ta’lim tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish, ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlik haqida muzokaralar olib borildi. Davra suhbat matematiklar jamoasi o’rtasida juda qizg’in ruhda o’tdi.



**TIQXMMI matbuot xizmati**